


## ISTE'MOL BOZORI


2022- yilning yanvar-iyun oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 095,1 mld. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 8,3 foizga o‘sidi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 420,7 mld. so‘mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 8 674,4 mld. so‘mni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, *mldr. so‘m*



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Samarqand shahri 40,5 %, Urgut tumani 9,2 %, Kattaqo‘rg‘on shahri 6,7 %, Samarqand tumani 5,7 %, Pastdarg‘om tumani 5,2 %, Bulung‘ur tumani 4,1 %, Kattaqo‘rg‘on tumani 4,1 %, Jomboy tumani 3,9 %, Payariq tumani 3,5 % va Toyloq tumani 3,4 % chakana savdo tovar aylanmasining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

### Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, % da




Viloyatda aholi jon boshiga 2022- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 739,3 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 % ga ko'paydi. Asosan aholi jon boshiga eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (7 968,6 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (8 030,5 ming so'm) va Jomboy tumanlarida (2 414,1 ming so'm) kuzatildi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	<i>Hajmi, ming so ‘mda</i>	<i>O’tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>2 739,3</b>	<b>106,1</b>
Samarqand sh.	7 968,6	109,0
Kattaqo‘rg‘on sh.	8 030,5	102,7
tumanlar:		
Bulung‘ur	2 342,8	103,8
Jomboy	2 414,1	104,2
Ishtixon	1 250,9	103,0
Kattaqo‘rg‘on	1 607,3	103,8
Narpay	1 370,1	104,6
Nurobod	1 280,2	103,8
Oqdaryo	1 608,3	102,7
Payariq	1 493,2	103,9
Pastdarg‘om	1 573,2	105,4
Paxtachi	1 463,1	106,8
Samarqand	2 410,0	107,0
Urgut	1 913,2	104,7
Toyloq	1 757,8	104,7
Qo‘shrabot	1 368,2	102,0

Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari kuzatilib, o’tgan yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’ati Samarqand shahri va Samarqand, Paxtachi va Pastdarg‘om tumanlarida qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik savdo korxonalarning hajmi 2 420,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,5 % ni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 21,8 foizini tashkil qildi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 8 674,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,2 % ga teng kelmoqda.

## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da

2021- yil yanvar-iyun



2022- yil yanvar-iyun



Yirik korxonalar  
 Kichik tadbirkorlik


## Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo‘yicha chakana tovar aylanmasi

	Hajmi, mlrd. so‘m	2021- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>11 095,1</b>	<b>108,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
davlat mulki	0,9	135,1	0,01
nodavlat mulki	11 094,2	114,0	99,99

## 2022- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	Hajmi, mlrd. so‘m	2021- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	<b>11 095,1</b>	<b>108,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Yirik korxonalar	2 420,7	123,5	21,8
Kichik va mikrofirmalar	3 296,4	107,2	29,7
Norasmiy sektor	5 377,9	103,3	48,5

### Chakana savdo tarkibi, % da



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 308,4 mlrd. so‘mni yoki 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,3 foizni tashkil etdi.